



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ELEKTORAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT ORGANLARI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI

Elmurodov Faxriddin Farxodovich

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi, boshqarma boshlig‘i

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy demokratik jamiyatda saylov tizimi va elektoral madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Elektoral madaniyatni shakllantirishda davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni, saylov qonunchiligi, huquqiy ma’rifat, ommaviy axborot vositalari va raqamli axborot makonining ta’siri kompleks tarzda yoritilgan. Shuningdek, mamlakatda elektoral madaniyat rivojiga to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-nazariy xulosalar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari elektoral madaniyatni yuksaltirish orqali demokratik islohotlar samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Elektoral madaniyat, saylov tizimi, demokratik islohotlar, huquqiy savodxonlik, siyosiy faollik, fuqarolik jamiyati, mediasavodxonlik, saylov qonunchiligi, jamoatchilik nazorati, raqamli axborot makoni.

РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ОРГАНОВ И ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИЗБИРАТЕЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

Элмуродов Фахриддин Фарходович

Центральный совет Народно-демократической партии Узбекистана, начальник
управления

Аннотация

В данной статье представлен научно-теоретический анализ взаимосвязи между избирательной системой и избирательной культурой в современном демократическом обществе. Всесторонне рассматривается роль государственных органов и институтов гражданского общества в формировании избирательной культуры, а также влияние избирательного законодательства, юридического образования, средств массовой информации и цифрового информационного пространства. Кроме того, выявлены системные проблемы, сдерживающие развитие избирательной культуры в стране, и предложены научно-теоретические выводы по их устранению. Результаты исследования показывают, что эффективность демократических реформ может быть повышена за счет повышения уровня избирательной культуры.

Ключевые слова: избирательная культура, избирательная система, демократические реформы, правовая грамотность, политическая активность, гражданское общество, медийная грамотность, избирательное законодательство, общественный контроль, цифровое информационное пространство.

THE ROLE OF STATE BODIES AND CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS IN SHAPING ELECTORAL CULTURE

Elmurodov Faxriddin Farxodovich

Central Council of the People's Democratic Party of Uzbekistan, Head of Department

Abstract

This article provides a scientific and theoretical analysis of the interrelationship between

the electoral system and electoral culture in a modern democratic society. It comprehensively examines the role of state institutions and civil society in shaping electoral culture, as well as the impact of electoral legislation, legal awareness, mass media, and the digital information environment. The study also identifies systemic challenges hindering the development of electoral culture in the country and proposes scientific and theoretical conclusions to address them. The research findings demonstrate that improving electoral culture can enhance the effectiveness of democratic reforms.

Keywords: Electoral culture, electoral system, democratic reforms, legal literacy, political participation, civil society, media literacy, electoral legislation, public oversight, digital information environment.

Zamonaviy demokratik jamiyatda saylov tizimi davlat hokimiyatini qonuniy shakllantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Uning samaradorligi fuqarolarning siyosiy faolligi, huquqiy ongi va ongli ishtirokiga bogʻliq boʻlib, elektoral madaniyatni rivojlantirish demokratik taraqqiyotning muhim shartidir. Globallashuv va raqamlashuv jarayonlari kuchaygan hozirgi sharoitda saylov jarayonlari mazmunan va shaklan oʻzgarmoqda. Axborot oqimlarining keskin ortishi, raqamli kommunikatsiyalar taʼsirining kuchayishi hamda siyosiy raqobatning yangi formatlari elektoral madaniyat mazmuniga yangi talablarni qoʻymoqda. Bu esa elektoral madaniyatni shakllantirishda davlat organlari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada oshirmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, elektoral madaniyatni shakllantirishga taʼsir etuvchi omillarni ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish boʻyicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Elektoral madaniyatni shakllantirish masalasi siyosatshunoslik va ijtimoiy fanlarda keng tadqiq qilingan yoʻnalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammoning nazariy asoslari, avvalo, siyosiy ishtirok, fuqarolik faolligi va demokratik institutlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni tadqiq etgan xorijiy va mahalliy olimlar ishlarida oʻz aksini topgan. Elektoral madaniyat boʻyicha xorijiy olimlardan G. Almond, S. Verba, E. Giddens, M. Dyuverje, C. Hay, U. Rozenbaum, M. Fiorina va boshqalar tomonidan koʻplab ilmiy tadqiqotlar va kitoblar nashr qilingan. Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi olimlari R.F. Turovskiy, O.S. Morozova, N.V. Timoshenko, V.T. Maksimov, S.V. Nazarenko, D.B. Oreshkin, D.D. Oreshkina, V.V. Sutirin, S.A. Shirobokov va boshqalar tomonidan ham izlanishlar natijasida turli xildagi adabiyotlar va maqolalar chop etilgan. Mamlakatimizda saylov madaniyati, uning jamiyat hayotida tutgan oʻrni hamda fuqarolarning siyosiy tafakkuri va madaniyatini shakllantirish masalalarini tadqiq etishda A. Saidov, M. Abdusalomov, G. Jiyanmurotova, K. Umarova, X. Odilqoriyev, I. Saifnazarov kabi olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy monografiyalar, maqolalar va publitsistik asarlar, shuningdek, himoya qilingan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini koʻrsatib oʻtishimiz mumkin.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili elektoral madaniyatni shakllantirish davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlik natijasi ekanini koʻrsatdi. Mazkur yondashuv tadqiqot metodologiyasini belgilashda asos boʻlib xizmat qildi.

Tadqiqotda elektoral madaniyatni shakllantirish jarayonlarini oʻrganishda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, kontent tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Bu usullar elektoral madaniyatni davlat va jamiyat oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir tizimi sifatida kompleks oʻrganish imkonini berdi.

Muhokama. Zamonaviy demokratik jamiyatda saylov tizimi davlat hokimiyatini legitim shakllantirishning asosiy siyosiy-huquqiy mexanizmi sifatida namoyon boʻladi. Uning samarali amal qilishi esa jamiyatda shakllangan elektoral madaniyat darajasi bilan bevosita bogʻliq hisoblanadi. Shu maʼnoda, “Saylov tizimi demokratik jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi boʻlib, fuqarolarning saylash va saylanishidan iborat huquqini amalga oshirish jarayonida yuzaga

keladigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisini anglatadi" [1; 6-b.] degan ilmiy ta'rif saylov tizimining mohiyatini to'liq ifodalaydi. Mazkur jarayonda fuqarolarning huquqiy ongi, siyosiy faolligi hamda saylov jarayonlarida ongli ishtirok etish madaniyati davlat hokimiyatining demokratik va qonuniy shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Elektoral madaniyatni yuksaltirmasdan turib, demokratik islohotlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqib bo'lmaydi [2]. Chunki saylov jarayonlarida fuqarolarning ongli ishtiroki, huquq va majburiyatlarini chuqur anglashi hamda siyosiy mas'uliyat hissining shakllanishi demokratik islohotlarning barqarorligi va samaradorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

Natijalar. Elektoral madaniyat jamiyatning umumiy siyosiy madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning rivojlanishi davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar tabiati, institutsional ishonch darajasi hamda huquqiy muhit barqarorligiga bog'liq holda shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, elektoral madaniyat o'z-o'zidan yuzaga keladigan holat emas, balki davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining maqsadli, tizimli va uzluksiz faoliyati natijasida vujudga keladigan ijtimoiy jarayondir.

Davlat organlari elektoral madaniyatni shakllantirishda, avvalo, saylov jarayonining huquqiy asoslarini yaratish orqali hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, Markaziy saylov komissiyasi saylov tashkilotchisi sifatida fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshiradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining qabul qilinishi saylov tizimini kodifikatsiya qilish orqali aholi uchun yagona va tushunarli huquqiy manba yaratdi hamda saylov jarayonlarini tartibga soldi [3].

Saylov qonunchiligining aniq, barqaror va barcha subyektlar uchun teng qo'llanilishi fuqarolarda saylov institutiga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi. Qonun ustuvorligi ta'minlangan muhitda saylov jarayoni fuqarolar ongida adolatli raqobatga asoslangan siyosiy institut sifatida shakllanadi. Bunday ishonch esa elektoral madaniyatning psixologik poydevorini tashkil etib, fuqarolarning faol ishtirokini rag'batlantiradi.

Shu bilan birga, saylov jarayonini amaliy jihatdan tashkil etish sifati ham elektoral madaniyat rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ovoz berish infratuzilmasining qulayligi, saylov komissiyalari a'zolarining kasbiy tayyorgarligi, xizmat madaniyati va axborot ochiqligi fuqarolarning saylovdagi shaxsiy tajribasini belgilaydi. Saylov jarayonida ijobiy tajriba orttirgan fuqaro keyingi siyosiy jarayonlarda ham faol ishtirok etishga moyil bo'ladi [4; 79-b.]. Demak, saylovni tashkil etishning tashkiliy sifati elektoral madaniyatni shakllantirishda muhim amaliy omil hisoblanadi.

Davlat organlari tomonidan amalga oshirilayotgan huquqiy-ma'rifiy ishlar elektoral madaniyatning intellektual va bilim asosini ta'minlaydi. Biroq amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur faoliyat ko'p hollarda umumiy va formal axborot berish bilan cheklanib qolmoqda. Natijada fuqarolarda saylov huquqi haqida ma'lum darajada bilim shakllangan bo'lsa-da, mazkur bilimlar amaliy ko'nikmalarga aylanmay qolmoqda. Xususan, siyosiy dasturlarni tahlil qilish, axborot manbalarini tanqidiy baholash, manipulyativ texnologiyalarni farqlash hamda saylov jarayonida huquqbuzarlik holatlariga huquqiy javob qaytarish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan.

Elektoral madaniyatni shakllantirish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari muhim ijtimoiy-siyosiy vazifani bajaradi. Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari, mustaqil ekspertlar hamda jamoatchilik faollari saylov jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga oshirish, shuningdek, fuqarolarning siyosiy faolligini rag'batlantirish orqali elektoral madaniyatning barqaror ijtimoiy asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, siyosiy partiyalar aholining huquqiy madaniyatini va faolligini oshirish, ularning davlat siyosatini tashkil etish va boshqarishdagi ishtirokini ta'minlash orqali davlat va jamiyat o'rtasida o'ziga xos ko'priklar vazifasini o'taydi [5; 32-b.].

Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, bugungi raqamli axborot makoni sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarining mediasavodxonlikni oshirishga qaratilgan faoliyati elektoral madaniyatning zamonaviy mazmunini belgilab bermoqda. Shuni e'tirof etish joizki, fuqarolik jamiyatining muhim instituti sanalmish OAV yordamisiz siyosiy islohotlarga nisbatan pozitiv ijtimoiy fikrning shakllanishi, aholining siyosiy va elektoral madaniyatini yuksaltirish mushkul bo'lib qoladi [6; 61-b.].

Turli axborot platformalari orqali tarqalayotgan asossiz xabarlar, emotsional chaqiriqlar va manipulyativ kontent saylovchilar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu kabi holatlarning oldini olish uchun aholining media va axborot savodxonligini oshirishga qaratilgan maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zamonaviy saylov jarayonlarining dolzarb talablaridan biri hisoblanadi. Chunki saylov kampaniyalari davrida fuqarolar ko'pincha soxta xabarlar, manipulyativ axborot oqimlari hamda psixologik ta'sir ko'rsatuvchi texnologiyalar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Shu bois mazkur bosqichda fuqarolarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, axborot manbalarining ishonchliligini tekshirish, emotsional ta'sirga asoslangan siyosiy chaqiriqlarni mantiqiy tahlil qilish va filtrlash, shuningdek, muqobil hamda turli axborot manbalaridan foydalanish madaniyatini o'rgatishga qaratilgan metodik yondashuvlarni joriy etish elektoral madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bugun mamlakatimizda elektoral madaniyat rivojida qator tizimli muammolar mavjud. Xususan:

- aholining siyosiy-huquqiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ixcham o'quv dasturlari, interaktiv kurslar hamda tizimli tadbirlar yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan;
- yoshlarning elektoral ongi va siyosiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy seminarlar, davra suhbatlari va konferensiyalar yetarli tizimlilikka ega emas;
- ommaviy axborot vositalarida yoshlarning elektoral bilim va ko'nikmalarini boyitishga qaratilgan maxsus ijtimoiy kontent, media-loyihalar va rag'batlantiruvchi tadbirlar ulushi kam. Mavjud materiallar asosan xabar berish funksiyasi bilan cheklanib, interaktiv, tarbiyaviy va motivatsion formatlar yetarli rivojlanmagan;
- elektoral madaniyatni oshirishga qaratilgan zamonaviy raqamli vositalar, xususan, maxsus mobil ilovalar, onlayn platformalar va geymifikatsiya elementlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni vaqtida bartaraf etmaslik elektoral madaniyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, fuqarolarning siyosiy-huquqiy bilimlari yetarli darajada shakllanmasligi natijasida saylov jarayonlarida ongli ishtirok darajasi pasayib, saylov huquqlarini amalga oshirishda faollik susayishi mumkin. Yoshlar bilan tizimli ish olib borilmasligi ularning siyosiy jarayonlarga befarq munosabatini kuchaytirib, kelgusida faol elektorat qatlamining shakllanishini sekinlashtiradi. Ijtimoiy hamkorlik va axborot yoritilishi yetarli bo'lmagan sharoitda jamoatchilik xabardorligi past bo'lib qoladi, bu esa turli manipulyativ axborotlarga moyillikni oshiradi. Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar imkoniyatlaridan samarali foydalanilmasligi esa yoshlarning siyosiy jarayonlarga qiziqishini kamaytirib, umumiy siyosiy faollik darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Natijada jamiyatda barqaror elektoral madaniyatni shakllantirish jarayoni sekinlashadi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, saylov jarayonidan keyin aniqlangan kamchiliklarni tizimli tahlil qilish, ular bo'yicha jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish va tegishli xulosalar chiqarish mexanizmlarining yetarli darajada institutsionallashmagani ham elektoral madaniyatning barqaror rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunda xalqaro kuzatuvchilarning xulosalariga tayangan holda ishlarni amalga oshirish katta natijalar berishi mumkin.

Xulosa. Tahlil natijalari elektoral madaniyat demokratik taraqqiyotning muhim institutsional va ijtimoiy asoslaridan biri ekanligini tasdiqladi. Saylov tizimining samaradorligi

fuqarolarning huquqiy ongi, siyosiy faolligi va mediasavodxonligi bilan bevosita bog‘liq ekani ilmiy jihatdan asoslandi.

Elektoral madaniyatni yuksaltirish maqsadida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- aholining siyosiy-huquqiy bilim va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan interaktiv ta‘lim dasturlarini joriy etish;
- yoshlar bilan ishlashning tizimli va uzluksiz mexanizmlarini rivojlantirish;
- ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali mediasavodxonlikni oshirish;
- davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish;
- saylov jarayonlaridan keyingi tahlil va jamoatchilik muhokamalari mexanizmlarini institutsionallashtirish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, elektoral madaniyatni kompleks ravishda rivojlantirish demokratik islohotlarning barqarorligi va samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ushbu yo‘nalishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdusalomov M. Xalqaro saylov standartlari va O‘zbekiston Respublikasi saylov qonunchiligi. – T.: O‘zbekiston, 2015.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashi. Aholining elektoral madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha Milliy harakatlar dasturi to‘g‘risida: qo‘shma qaror. – 07.06.2021. – № 1008-IV. – URL: <https://lex.uz/docs/5471516>
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi. Rasmiy sayt. – URL: https://saylov.uz/uz/about_us/vazifamiz
4. O‘zbekiston Respublikasi. Saylov kodeksi. – T.: Adolat, 2023.
5. Verba S., Nie N. H. Participation in America: political democracy and social equality. – Chicago: University of Chicago Press, 1987.
6. Demokratlashtirish va inson huquqlari: ilmiy-ma‘rifiy jurnal. – 2021. – № 3 (91).
7. Jiyannurotova G. O‘zbekiston yoshlarining elektoral madaniyati: monografiya. – T.: Kaleon Press, 2021.